O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2022 - yil 9 - dekabr 561-8-116-Q/22 Sariosiyo tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashiga nomzodlarni shakllantirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 647-sonli hamda shu haqdagi Surxondaryo viloyat hokimining 2022-yil 14-noyabrdagi 622-8-0-Q/22-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Vazirlar Mahkamasining “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori ijrosini ta’minlash, davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi a’zoligiga nomzodlarni shakllantirish tartibini takomillashtirish va shaffofligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashiga nomzodlarni shakllantirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 647-sonli hamda shu haqdagi Surxondaryo viloyat hokimining 2022-yil 14-noyabrdagi 622-8-0-Q/22-sonli qarorlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimligi Tashkiliy nazorat guruhi, tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda o‘zlari davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruv va nazorat organlarining amaldagi tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bir oy muddatda www.cns.davaktiv.uz maxsus portaliga

joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Tumandagi mutasaddi korxona va tashkilotlar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qaror talablariga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.P.Xujaqulov**